BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI



# BUXORO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



2023- YIL
YANVAR



**2023- yilning yanvar oyida, Buxoro viloyatida jami 255,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan 59,0 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



# 2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*







**1 796** — Bino va inshootlar qurish

**363** — Fuqarolik obyektlarini qurish

**840** — Ixtisoslashtirilgan quilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2022- yilning mos davri bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 104,9 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 59,9 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,6 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,1 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 144,0 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 28,0 foiz ulushni va 105,8 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga : | | o‘tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.02.2022- y. | 01.02.2023- y. | |
| **Buxoro viloyati** | **2 858** | **2 999** | **104,9** |
| **Buxoro shahri** | 924 | 978 | 105,8 |
| **Kogon shahri** | 124 | 134 | 108,1 |
| ***tumanlar:*** | | | |
| **Olot** | 77 | 84 | 109,1 |
| **Buxoro** | 219 | 226 | 103,2 |
| **Vobkent** | 127 | 128 | 100,8 |
| **G‘ijduvon** | 193 | 209 | 108,3 |
| **Kogon** | 144 | 146 | 101,4 |
| **Qorako‘l** | 111 | 113 | 101,8 |
| **Qorovulbozor** | 52 | 59 | 113,5 |
| **Peshko‘** | 164 | 181 | 110,4 |
| **Romitan** | 245 | 260 | 106,1 |
| **Jondor** | 238 | 236 | 99,2 |
| **Shofirkon** | 240 | 245 | 102,1 |



# 2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra Buxoro viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

Buxoro sh. (32,6)



Romitan t. (8,6)



Shofirkon t. (8,2)





# Qurilish ishlari
# 2023- yil yanvar uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| **Buxoro viloyati** | **255,7** | **32,5** | **173,8** | **49,4** |
| Buxoro sh. | 64,1 | 0,9 | 50,2 | 13,0 |
| Kogon sh. | 7,2 | 4,3 | 1,5 | 1,4 |
| **tumanlar:** | | | | |
| Olot | 15,8 | 2,0 | 11,0 | 2,8 |
| Buxoro | 16,1 | 3,3 | 9,1 | 3,7 |
| Vobkent | 8,4 | - | 6,2 | 2,2 |
| G‘ijduvon | 15,3 | 0,0 | 10,0 | 5,3 |
| Kogon | 7,3 | 0,8 | 3,9 | 2,6 |
| Qorako‘l | 20,3 | 0,0 | 17,9 | 2,4 |
| Qorovulbozor | 18,2 | 15,7 | 2,2 | 0,3 |
| Peshko‘ | 9,4 | - | 5,6 | 3,8 |
| Romitan | 27,2 | 4,1 | 17,9 | 5,2 |
| Jondor | 36,4 | - | 33,0 | 3,4 |
| Shofirkon | 10,0 | 1,4 | 5,3 | 3,3 |



**2023- yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 32,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning mos davriga nisbatan 72,6 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 2,3 % punktga ko‘payib, 12,7 % ni tashkil etdi.**

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 86,3 % i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 57,8%), Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 59,6% i yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 83,5 %) ga to‘g‘ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2023- yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,0% i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning ko‘rsatkichiga nisbatan 10,2 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 51,6% ni tashkil etgan holda 173,8 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.**




**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**

**68,0**
2023-yil yanvar

**78,2**
2022- yil yanvar



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Jondor tumanida (33,1 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 90,8 %), Qorako‘l tumanida (17,9 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 88,1 %) va Buxoro shahrida (50,2 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 78,4%) ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

**Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 19,3 % ni tashkil etdi yoki 49,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 97,4 % ni tashkil etdi.**




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **7,7** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **248,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **3,0 %** va **97,0 %** ni tashkil etdi.



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar oyida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **46,5** % i yoki **119,1** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**9,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **11,4** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **73,6** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **61,8 %** ni tashkil etdi.

**61,8 %**

**28,7 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **34,1** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **28,7 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar oyida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan foizda |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **255,7** | **59,0** | **100,0** |
| ***shahar:*** | | | |
| Buxoro sh. | 64,1 | 63,8 | 25,1 |
| Kogon sh. | 7,2 | 93,5 | 2,8 |
| ***tuman:*** | | | |
| Olot | 15,8 | 57,0 | 6,2 |
| Buxoro | 16,1 | 38,3 | 6,3 |
| Vobkent | 8,4 | 63,9 | 3,3 |
| G‘ijduvon | 15,3 | 33,9 | 6,0 |
| Kogon | 7,3 | 31,1 | 2,9 |
| Qorako‘l | 20,3 | 86,2 | 7,9 |
| Qorovulbozor | 18,2 | 61,7 | 7,1 |
| Peshko‘ | 9,4 | 43,1 | 3,7 |
| Romitan | 27,2 | 64,1 | 10,6 |
| Jondor | 36,4 | 79,7 | 14,2 |
| Shofirkon | 10,0 | 90,9 | 3,9 |



***Ma’lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

**2022- yil yanvar**

59,9 %
Bino va inshootlarni qurish

21,8 %
Fuqarolik obyektlarini qurish

18,3 %
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**100,0 %**

**2023- yil yanvar**

65,0%
Bino va inshootlarni qurish

16,6 %
Fuqarolik obyektlarini qurish

18,4%
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi

*ulushi % da*

| | 2022- yil yanvar | 2023- yil yanvar |
|---|---|---|
| Yirik qurilish tashkilotlari | 2,4 | 5,6 |
| Kichik korxona va mikrofirmalar | 78,6 | 64,6 |
| Norasmiy sektor | 19,0 | 29,8 |



**Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,6 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 3,2 % punktga ko‘paydi.**

**Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2022- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 14,0 % punktga kamayib, 64,6 % ni tashkil etdi.**

**Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 10,8 % punktga ko‘payib, 29,8 % ni tashkil etdi.**

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 7,4 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 5,9 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 92,6 % (5,9 % punktga ko‘payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

***ulushi % da***



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 9,5 % punktga koʻydi va 42,5 % ni tashkil etdi. Qolgan 57,5 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 9,5 % punktga kamaydi.



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Bino va inshootlarni qurish | Fuqarolik obyektlarini qurish | Ixtisoslashti-rilgan qurilish ishlari |
| **Buxoro viloyati** | **255,7** | **166,1** | **42,6** | **47,0** |
| ***shahar:*** | | | | |
| Buxoro sh. | 64,1 | 45,2 | 10,9 | 8,0 |
| Kogon sh. | 7,2 | 4,0 | 1,1 | 2,1 |
| ***tuman:*** | | | | |
| Olot | 15,8 | 6,7 | 5,3 | 3,8 |
| Buxoro | 16,1 | 13,0 | 1,3 | 1,8 |
| Vobkent | 8,4 | 4,7 | 2,4 | 1,3 |
| G‘ijduvon | 15,3 | 12,0 | 1,9 | 1,4 |
| Kogon | 7,3 | 4,9 | 1,3 | 1,1 |
| Qorako‘l | 20,3 | 12,9 | 4,6 | 2,8 |
| Qorovulbozor | 18,2 | 2,2 | 1,1 | 14,9 |
| Peshko‘ | 9,4 | 7,5 | 0,7 | 1,2 |
| Romitan | 27,2 | 19,7 | 5,2 | 2,3 |
| Jondor | 36,4 | 28,2 | 4,8 | 3,4 |
| Shofirkon | 10,0 | 5,1 | 2,0 | 2,9 |



# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar

ulushi % da



# Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar uchun

| | Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so‘m | O‘sish sur’ati, % da |
|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **128,3** | **58,1** |
| ***shahar:*** | | |
| Buxoro sh. | 223,7 | 62,9 |
| Kogon sh. | 113,8 | 91,7 |
| ***tuman:*** | | |
| Olot | 154,5 | 56,2 |
| Buxoro | 92,7 | 37,6 |
| Vobkent | 58,2 | 62,9 |
| G'ijduvon | 48,8 | 33,4 |
| Kogon | 89,4 | 30,5 |
| Qorako‘l | 120,7 | 85,0 |
| Qorovulbozor | 942,5 | 60,1 |
| Peshko' | 73,6 | 42,3 |
| Romitan | 184,3 | 63,0 |
| Jondor | 201,4 | 78,4 |
| Shofirkon | 54,5 | 89,5 |



**Hududlar kesimida 2023- yil yanvar oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo‘yicha birinchi o‘rinni Qorovulbozor tumani — 942,5 ming so‘m (yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 60,1 %), undan keyin mos ravishda Buxoro shahri – 223,7 ming so‘m (yoki 62,9 %), Jondor tumani – 201,4 ming so‘m (yoki 78,4 %), Romitan tumani – 184,3 ming so‘m (yoki 63,0 %) va Olot tumani – 154,5 ming so‘m (yoki 56,2 %) egalladi.**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**

Aloqa telefoni: ***(65) 223-81-99***